

TARBIYACHILARNING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARIGA
MOSLASHUVCHANLIGI JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

R.A.Xaydarova

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti katta o'qituvchisi*

Annotasiya. *Yangi O'zbekistonda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Islohotlarning katta qismi ta'lim tizimiga to'g'ri kelmogda. Ta'lim tizimining barcha sohalarida bo'lgani kabi, maktabgacha ta'lim tizimini ham modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlantirish ishlari olib borilmogda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimi pedagog kadrlarining jarayonga tayyorligi, yangiliklarga moslahuvi ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar. *Islohotlr, moslashuvchanlik, innovatsiya, maktabgacha ta'lim tizimi, modernizatsiya, metodika, g'oya, «dizayn fikrlash», «ishbilarmonlik o'yinlari», qaytar aloqa.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА АДАПТАЦИИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К
РЕФОРМАМ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннотация. В новом Узбекистане во всех сферах осуществляются масштабные реформы. Большая часть реформ приходится на систему образования. В системе дошкольного образования, как и в других сферах системы образования, ведется работа по модернизации, ее развитию с использованием передовых образовательных технологий. В статье рассматривается готовность педагогических кадров системы дошкольного образования к данному процессу, адаптация к инновациям.

Ключевые слова. Реформа, адаптация, инновация, система дошкольного образования, модернизация, методика, идея, «дизайнерское мышление», «деловые игры», обратная связь.

**IMPROVING THE PROCESS OF ADAPTATION OF EDUCATORS TO REFORMS IN
THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM**

Abstract. *In the new Uzbekistan, large-scale reforms are being implemented in all spheres. Most of the reforms fall on the education system. In the preschool education system, as in other areas of the education system, work is underway to modernize and develop it using advanced educational technologies. The article examines the readiness of the pedagogical staff of the preschool education system for this process, adaptation to innovation.*

Keywords. *Reform, adaptation, innovation, system of preschool education, modernization, methodology, idea, "design thinking", "business games", feedback.*

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida yangilanishga intilish innovatsion jarayonlarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ta'limdagi, shu jumladan maktabgacha ta'limdagi innovatsiya masalalariga hukumat darajasidagi katta e'tibor natijasida qisqa fursat ichida boy nazariy materiallar va amaliy tajriba to'plandi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida innovatsion ta'limga ehtiyoj bir qator holatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimi, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etish metodologiyasi va texnologiyasida o'zgarishlarni taqozo etadi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarini rivojlanishi va yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarining (nodavlat, xususiy) paydo bo'lishi, ularning rivojlanishi uchun real vaziyat yaratmoqda va sog'lom raqobatga erishish uchun takomillashmoda.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish ta'lim sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Texnologiya aql bovar qilmaydigan tezlikda rivojlanayotgan bugungi dunyoda pedagoglar ta'lim jarayonidagi yangi chaqiriqlar va o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari uchun o'z bilim va malakalarini muntazam oshirib borishlari zarur. Bugungi kun yangi g'oyalarni idrok etishga, nostandart qarorlar qabul qilishga va maktabgacha ta'limning innovatsion jarayonida faol ishtirok etishga qodir, pedagogik masalalarni hal qilishga tayyor mahoratli pedagog-tadqiqotchiga muhtoj.

Biroq, ta'lim boshqa sohalarga nisbatan sezilarli darajada orqada qolayotgani, pedagog-xodimlarning bir qismi esa mutaassibli va yangiliklarni qabul qila olmasligi o'rinli tanqidlariga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida aytilgandek, maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish kreativ faoliyatga qodir, innovatsiyalarga moslashuvchan, mas'uliyatdan qo'rqmaydigan va individualligini to'liq namoyon etuvchi mustaqil qarorlar qabul qila oladigan tarbiyachi-pedagog shaxsini rivojlantirishga yangi yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini belgilab bermoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi yangilanish va rivojlanish yo'llaridan biri o'qituvchining innovatsion faoliyat hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyot tarbiyachilarni tizimli o'zgarishlar sharoitida pedagogik faoliyatda o'zgarayotgan vazifalarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga uchrayotganini ko'rsatmoqda.

Innovatsiyalarning samaradorligini past darajasiga pedagoglarning innovatsion salohiyati, faolligining pastligi va takomillashtirishga qaratilgan tashabbuslarning kamligi ham sabab bo'lmoqda.

Barcha sohalar bilimdoni tarbiyasi haqidagi g'oya o'z kuchini yo'qotib bormoqda. Uning o'rniga ommalashayotgan - tanqidiy fikrlovchi ijodkor shaxs ta'limoti dunyoning ijobiy o'zgarishiga hissa qo'shadigan innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Buning natijasida, yosh avlodni ilg'or rivojlanish g'oyalari monand tarbiyalay oladigan innovatsion ta'lim berishga qodir shaxslarning keng doirasini tayyorlash muammosi yuzaga kelmoqda.

Ushbu yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun, pedagog-tarbiyachilarni zamon talablariga mos ravishda tayyorlash va ta'lim tizimidagi yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanday metodik ishlarni amalga oshirish kerak? Pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri yangi texnologiyalar va ish uslublariga o'rgatishdir. Malaka oshirish kurslari o'qituvchilarga bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Masalan, kurslarda interfaol doska bilan ishlashni, turli ilovalardan foydalanishni o'rganish bilan birga elektron darsliklar va boshqa elektron resurslar bilan ishlash ko'nikmalarini egallash mumkin. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning yana bir yo'li turli anjuman va seminarlarda qatnashishdir. Bunday tadbirlarda pedagoglar hamkasblari bilan o'zaro tajriba almashishi, yangi yo'nalish va ish uslublarini o'rganishi, tajribali mutaxassislardan maslahat olishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish pedagoglarga boshqa mamlakatlardagi ilg'or tajribalar bilan tanishish va ularni o'z faoliyatida qo'llash imkonini beradi.

Shuningdek, pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning muhim yo'li onlayn resurslar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish hisoblanadi. Internetda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha juda ko'p foydali materiallarni topish, shuningdek, boshqa mintaqalar va mamlakatlardagi hamkasblar bilan muloqot qilish imkoniyati mavjud. Facebook, Twitter, Instagram va b. kabi ijtimoiy tarmoqlar pedagoglarga tajriba almashish, fikr almashish va yangi hamkasblar topish imkonini beradi.

Va nihoyat, shuni ta'kidlash kerakki, pedagoglarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish doimiy jarayon bo'lishi kerak. Pedagoglar ta'lim jarayonidagi yangi chaqiriq va o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari uchun doimo o'rganishlari va rivojlanishi kerak. Bu yuqori sifatli ta'limni ta'minlash va bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallashiga yordam berishning yagona yo'lidir.

Maktabgacha tarbiyachilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan bir necha usullar mavjud.

1. “Dizayn fikrlash” metodikasi. U bolalarning ehtiyojlari va muammolarini o'rganish va ularni hal qilish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga asoslangan. Ushbu texnikadan foydalangan holda tarbiyachi-pedagoglar bolalar bilan ishlashda ijodiy fikrlashni, yangi g'oyalarni yaratishni, prototipni yaratishni va yangi yondashuvlarni sinab ko'rishni o'rganadilar.

2. “Ishbilarmonlik o'yinlari” metodikasi. Bu pedagoglarga muloqot qilish, muammolarni hal qilish va loyihalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Ular bu ko'nikmalarni bolalar bilan ishlashda qo'llashlari mumkin, ularning rivojlanishi va hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

3. “Interfaol ta’lim” metodikasi. Bu bolalarni o’qitish uchun yangi texnologiyalar va vositalardan foydalanish imkonini beradi. Ushbu texnikadan foydalanadigan tarbiyachilar bolalarni o’qitish uchun interfaol doska, kompyuter o’yinlari va boshqa elektron resurslardan foydalanishlari mumkin.

4. “Qaytar aloqa». Bu pedagoglarga, hamkasblari va ota-onalardan fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi, bu esa ularning faoliyatini yaxshilash va innovatsion salohiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Pedagoglar bu fikr-mulohazalardan foydalanib, bolalar bilan ishlashda o’z uslub va yondashuvlarini takomillashtirishlari mumkin.

Qaytar aloqa maktabgacha ta’lim pedagogi uchun muhim vosita bo’lib, uning ishini samaradorligini oshirish va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu usullarning barchasi o’qituvchilarga o’zlarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga va bolalar bilan ishlashda samaraliroq bo’lishga yordam beradi. Ammo shuni tushunish kerakki, innovatsion salohiyatni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo’lib, u o’qituvchilardan doimiy ravishda o’rganishni, o’z faoliyatini o’rganishni va o’z mahoratini oshirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, pedagog faoliyatining ahamiyatli tomoni uning kasbiy kompetentligida namoyon bo’lib bola rivojlanishi va o’zgaruvchan hayotga tayyorlashning barcha jihatlariga ta’sir qiladi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatdagi o’zgarishlar sur’atlariga mos keladigan ilg’or mutaxassisga muhtoj.

ADABIYOTLAR:

1.R.A.Xaydarova MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI BO’LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENLIGINI SHAKLLANISHI-DA “SHAXSGA YO’NALTIRILGAN TA’LIM” NING O’RNI // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlari-bo-lajak-mutaxassislarning-kasbiy-kompetenligini-shakllanishida-shaxsga-yo-naltirilgan-ta-lim>.

2. Khaydarova Rano Anvarovna Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal -December 2021

3. Abdullaeva, S. K., Shayusupova, A. A., Jabborov, K. H., Kamalova, S. R., & Botirova, D. B. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION.